

Najmiddin A. HAFIZOV,
*Doctoral student of the International
 Islamic Academy of Uzbekistan.*
A.Qadiri str. 11, 100011, Tashkent, Uzbekistan.
 Email: najmiddinhafizov52@gmail.com

DOI: 10.47980/MOTURIDIY/2024-2/8

ABU HAFS NASAFIYNING FIQHGA OID ASARLARI

THE BOOKS WRITTEN BY ABU HAFS NASAFI IN THE FIELD OF FIQH

ТРУДЫ АБУ ХАФСА АН-НАСАФИ В ОБЛАСТИ ФИКХА

KIRISH

Alloma Abu Hafs Nasafiy hijriy 461 yoki 462-yilda, milodiy 1068-1070-yilda Nasaf vohasida tugʻilib, hijriy 537-yil 12 yoki 13-jumodul-ulo, milodiy 1142-yil 3 yoki 4-oktyabr kuni Samarqandda vafot etgan hamda o'sha yerdagi Chokardiza qabristoniga, Imom Moturidiy qabri yoniga dafn etilgan (D. Rahimjonov, 2020:20). Olimning to'liq ismini manbalarda Najmuddin Abu Hafs Umar ibn Muhammad ibn Ahmad ibn Ismoil ibn Muhammad ibn Ali ibn Luqmon an-Nasafiy as-Samarqandiy al-Hofiz al-Faqih az-Zohid al-Hanafiy tarzida uchratish mumkin. Olimning hayoti va ijodi haqida o'rta asrlarda yozilgan kitoblarning 20dan ortig'ida ma'lumotlar bor. Allomaning hayoti haqida dastlabki ma'lumotlarni undan keyin yashab ijod qilgan lekin bir davrda yashagan olim Abu Sa'd Abdulkarim ibn Muhammad Sam'oniyni (v. 1167 y.) asarida uchratamiz. Abu Sa'd Sam'oni o'zining «Kitob al-ansob» asarida Abu Hafs Nasafiyning nomini 27 o'rinda zikr etgan. Abu Hafs Nasafiy hanafiy mazhabining yirik namoyandalaridan biri sifatida dunyoga tanilgan olimdir. U islom ilmlarining hamma jabhasida yuqori marralarga erishgan. Jumladan, fiqh, tafsir, hadis, kalom ilmlari, arab tili va adabiyoti bo'yicha salohiyatli va iqtidorli olim bo'lib yetishgan.

Olim tavallud topgan xonadon ziyoli bo'lgan. U boshlang'ich ilmlarni o'z otasidan o'rgangan. Shu bilan birga olim tug'ilgan davrda Nasaf vohasi ilm ahli orasida taniqli shaharlardan bo'lib, Samarqand va Buxorodan keyingi o'rinda turgan. Bu shaharning ko'hna tarixga ega ekani ham shaharda

ilm taraqqiyotining yuqori bo'lishining asosiy sabablaridan hisoblanadi. Abu Hafs Nasafiyning kichik zamondoshi, jahongashta olim, marvlik shofeiy mazhabi olimi Abu Sa'd Sam'oniyni ham quyida bu shahar haqida aytgan so'zlari e'tiborga molikdir:

«Nasaf Movarounnahr shaharlaridan biri bo'lib, uni Naxshab, deb ham ataydilar. Men u yerda ikki oycha yashab, ulamolaridan hadis eshitdim. Nasafdan har bir ilm sohasida ko'plab olimlar chiqqan bo'lib, ularning son-sanog'i yo'q».

Abu Tammom Hubayb ibn Avs o'zining xalifa Mu'tasimga (833-842) yozgan qasidasida Nasaf haqida shunday deydi:

«Rum sendan o'z yerto'lasida turib dahshatga tushadi,

Turklar esa Nasaf ortidan turib sendan qo'rqadi»
 (Rahimjonov D., 2020:10).

ASOSIY QISM

Umar Nasafiy «Muftiy as-saqalayn», laqabi bilan mashhur bo'lgan (Abdulkarim Juzjoni, 2005:32). Xalq ichida katta hurmat va izzatga ega bo'lishligining asosiy sabablaridan biri u kishi fozil imomlardan bo'lgan. Olim ilk tahsilini ona yurti Nasafda oldi. So'ngra ilm talabida Samarqandga boradi. U yerda katta-katta olimlarga shogird tusha boshlaydi. Abu Hafs Nasafiy XII asrning boshlaridan umrining asosiy, ijodiy qismini Samarqandda o'tkazdi. Manbalarda uning asarlarining umumiy soni yuzdan ortiq deb keltiriladi (Muhammad ibn Ahmad Zahabiy, 1992:126). Umrida faqat bir marta, ya'ni 1113-14 yili haj amalini bajarish maqsadida Bag'dod orqali Makkaga safar qildi. Ammo, uning safari uzoq davom etmay, keyingi yili o'z yurtiga qaytdi.

Abu Hafs Nasafiy Samarqandda o'z tahsilini davom ettirdi. Bu yerdagi «Dorul-juzjoniya» madrasasi allomaning ilm sohalarida katta marralarni qo'lga kiritishida ulkan ahamiyatga ega bo'ladi. Hanafiy ulamolar hayoti va ijodi haqida ma'lumot beruvchi tabaqotlarda Nasafiy ko'proq faqih va mufassir sifatida tilga olinadi. Chunki uning asarlari, asosan, mazkur sohalarga tegishli bo'lib, ular islom olamida keng tarqalgan (Abu Hafs Nasafiy, 2015:16). U kishining fiqh ilmidagi dastlabki ustozlari Sadrul-islom Abul-Yusr Muhammad Pazdaviy (vaf. 482/1089) bo'lgan.

Abu Hafs Nasafiyga Samarqanddan tashqari Buxoro maktabining ham ta'siri sezilarli bo'lgan.

Annotatsiya. Maqolada o'rta asrlarda yashagan yetuk olim Abu Hafs Umar Najmuddin Nasafiyning hayoti va ijodi aks ettirilgan. Abu Hafs Nasafiyning ilmiy ijodiga bevosita ta'sir qilgan Nasaf vohasi haqida qisqacha ma'lumotlar keltirilgan. O'rta asrlarda Samarqand va Buxoro ilmiy muhiti haqida hamda olimning bu shaharlarda ilm egallagani, Nasafiyning islom ilmlarining fiqh sohasiga oid asarlari haqida to'xtalib o'tilgan. Jumladan Nasafiyning «Matla' an-nujum va majma' al-'ulum» («Yulduzlarning chiqish joyi va ilmlar majmuasi») asariga kiritilgan fiqh asarlari va bu to'plamdan joy olmagan boshqa fiqh kitoblari tahlil qilingan. Olim tomonidan fiqhning «usul al-fiqh» va «furu al-fiqh» tarmoqlarida yozgan kitoblari alohida ko'rsatib o'tilgan. Ushbu asarlarning hanafiy mazhabi shakllanishidagi o'rni, shuningdek hanafiy mazhabining Movarounnahr diyorida chuqur ildiz otishi hamda o'lkada islom huquqshunosligining rivojlanishidagi ahamiyati bayon qilingan. Nasafiyning fiqh asarlari orasida «Tilba at-talaba» asarini alohida ta'kidlash lozim. Zero, bu asar fiqh sohasida yozilgan juda ko'p kitoblarga asos bo'lib xizmat qilgan.

Kalit so'zlar: Nasaf, fiqh, faqih, Movarounnahr, Matla' an-nujum va majma' al-'ulum, Tilba at-talaba, Usulul-fiqh, Furu al-fiqh, fiqh lug'at, qozi kalon.

Abstract. The article reflects the life and work of Abu Hafs Umar Najmuddin Nasafi, a mature scholar who lived in the Middle Ages. Brief information about the oasis of Nasaf, which directly influenced the scientific work of Abu Hafs Nasafi, is presented. The scientific environment of Samarkand and Bukhara in the Middle Ages, the scholar's acquisition of knowledge in these cities, and Nasafi's works on the field of Islamic jurisprudence were discussed. In particular, the jurisprudential works of Nasafi included in the work «Matla' an-nujum wa majma' al-'ulum» («The Rise of the Stars and the Complex of Sciences») and other jurisprudential books that were not included in this collection were analyzed. The books written by the scholar in the branches of fiqh «usul al-fiqh» and «furu al-fiqh» were shown separately. The role of these works in the formation of the Hanafi madhhab, as well as the deep roots of the Hanafi madhhab in the land of Mawarannahr and the importance of the development of Islamic jurisprudence in the country are described. Among the jurisprudential works of Nasafi, the work «Tilbat at-talaba» should be highlighted. After all, this work served as a basis for many books written in the field of jurisprudence.

Keywords: Nasaf, fiqh, jurist, Mawarannahr, Matla' an-nujum wa majma' al-'ulum, Tilbat at-talaba, Usul al-fiqh, Furu' al-fiqh, jurisprudential dictionary, qadi kalan.

Аннотация. В статье описываются жизнь и творчество видного ученого средних веков Абу Хафса Умара Наджмуддина Насафи. Приводятся краткие сведения об оазисе Насаф, непосредственно повлиявшем на научное творчество Абу Хафса Насафи. Представлена информация о научной среде в Самарканде и Бухаре в средние века, о получении ученым в этих городах знаний, а также о трудах Насафи в области фикха среди других Исламских наук. В частности, анализируются труды по фикху, вошедшие в произведение Насафи «Матла' ан-нуджум ва маджма' аль-улум» («Место восхода звезд и комплекс наук»), а также другие его книги по фикху, не вошедшие в этот сборник. Отдельно указаны труды ученого, написанные по направлениям фикха «усул ал-фикх» и «фuru ал-фикх». Разъясняется роль этих трудов в формировании ханафитского мазхаба, а также их значение в глубоком укоренении ханафитского мазхаба в землях Мавераннахра и развитии развития исламской юриспруденции в этих краях. Среди трудов Насафи по фикху следует отдельно отметить произведение «Тильба ат-талаба». Поскольку данное произведение послужила основой для множества книг, написанных в области фикха.

Ключевые слова: Насаф, фикх, факих, Мавераннахр, «Матла' ан-нуджум ва маджма' аль-улум», Тилба ат-талаба, усуль аль-фикх, фуру аль-фикх, юридический словарь, великий кади.

Olim Buxoroga borib, u yerda shayx, Sa'id ibn Muhammad Xorazmiydan dars eshitadi. Bundan tashqari, o'z zamonasida usul al-fiqh va furu' al-fiqh ilmida tengsiz bo'lgan Ato ibn Hamza Sug'diy (XI asr) hamda faqih Abu Ali Husayn ibn Yusuf Xaraqoni (434–505/1043–1112) kabi olimlardan ham ta'lim oladi. Abu Ali Husayn Xaraqoni Samarqanddagi Amir guzarida joylashgan madrasada mudarris bo'lgan. Katta ehtimol bilan Abu Hafs Nasafiy Samarqandga kelgan chog'ida mazkur madrasada ushbu mudarrisning qo'l ostida tahsil olgan. Shundan so'ng turli ilm sohalarida

tajriba orttirgan Abu Hafs Nasafiy ilm toliblariga Samarqand masjid va madrasalarida mudarrislik qildi (Rahimjonov D., 2020:13).

Imom Nasafiyning Imom Abu Hanifagacha yetib boradigan silsilasi quyidagicha bo'lgan: 1. Imom Pazdaviy; 2. Abu Ya'qub Yusuf Yasoriy; 3. Abu Is'hoq Hokim Navqadiy; 4. Hinduvoni; 5. Abul-Qosim; 6. Abu Bakr A'mash Muhammad ibn Sa'id; 7. Abu Bakr Iskof; 8. Nusayr ibn Yahyo; 9. Muhammad ibn Sammo'a; 10. Muhammad ibn Salama; 11. Abu Sulaymon Juzjoni; 12. Imom Muhammad; 13. Imom Abu Yusuf; 14. Imom Abu

Hanifa. Demak, Abu Hafs Nasafiyning Abu Hanifaga yetib boradigan fiqhiy silsilasi o'n beshinchi o'rinda turganini ko'rish mumkin (Allaqulov. A, 2018:13).

Hanafiy mazhabi doirasida fiqh ilmida sermahsul ijod qilgan Abu Hafs Nasafiyning tarixiy manbalarda ushbu sohada ko'plab asarlar yozib qoldirgani aytiladi. Abu Hafs Nasafiy yozib qoldirgan asarlarining ichida eng mashhur va hajmi kattasi bu «Matla' an-nujum va majma' al-'ulum» («Yulduzlarning chiqish joyi va ilmlar majmuasi») asaridir. Bu asar o'rta asrlar ta'lim tizimiga xos xususiyatlarni o'zida aks ettirgan katta manbadir. Bu to'plam 56ta asarni o'z ichiga olgan. Ular esa 23ta ilm tarmoqlariga bo'lingan. 40ta asar Abu Hafs Nasafiy qalamiga mansub, 16ta asar boshqa mualliflarga tegishli, ular qayta ishlangan (Muhammadaminov. S, 2012:20). Mavjud qo'lyozma 1364-yili boshqa nusxadan ko'chirilgan. Asl nusxa esa, o'z navbatida, 1138-yili Abu Hafs Nasafiyning bevosita imlo darslari davomida yozib olingan. Majmuadagi dastlabki ikki asar kalom ilmiga, uchinchi asar firqalar tavsifiga, 4-7 – axloq, 8-11 – Qur'oniylar, 12 – usul al-fiqh, 13-19 – hanafiy fiqhi (120 sahifali katta qism), 28-29 – hujjat tuzish namunalari, qolgan asarlar filologiya, matematika, tab'iyyot sohalariga bag'ishlangan (Bulgakov P., 1991:67-68). Bu to'plamning hozircha bizga ma'lum bo'lgan yagona nusxasi O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida 1462 raqami bilan saqlanadi. Ushbu asar bo'yicha yurtimizda ustoz S.A.Muhammadaminov «Abu Hafs an-Nasafiyning «Matla' an-nujum va majma' al-'ulum» asari va uning Markaziy Osiyo islom ilmlari rivojida tutgan o'rni (XI asr oxiri - XII asr o'rtalari)» nomi bilan asarni atroflicha tadqiq etgan.

Olim Abu Hafs Nasafiy fiqh ilmida yozgan asarlarning aksariyatini shu to'plamida bir joyga jamlagan. Abu Hafs Nasafiy fiqhga oid yozgan ko'plab asarlarining oz qismi bizning davrgacha yetib kelishi taajjublidir. Eng qizig'i shundaki, olimning bugungi kunda bor asarlari ham to'lig'icha o'rganilmagan. Olimning ushbu majmuasidagi fiqhga oid asarlar to'plamning uchdan bir qismini tashkil qilganligini ko'rish mumkin.

MUHOKAMA

Abu Hafs Nasafiyning fiqhiy kitoblarining aksari shu majmuada jamlangan bo'lib, allomaning fiqhiy kitoblarini ikki qismga bo'lib o'rganiladi. Dastlab, «Matla' an-nujum» to'plami tarkibiga kirgan fiqhiy

asarlari, undan so'ng esa majmuaga kirmagan fiqhiy kitoblarini o'rganamiz.

Abu Hafs Nasafiyning «Matla' an-nujum» to'plami tarkibiga kirgan fiqhiy asarlarini ham ikki qismga bo'lish mumkin. Sababi fiqh ilmining o'zi ham «Usul» va «Furu» kabi bo'limlarga bo'lib o'rganilgani uchun Umar Nasafiy ham har ikkala yo'nalishda asarlar yozgan. To'plam tarkibiga kirgan asarlardan dastlabkisi bu «Tahsil usul al-fiqh va tafsil al-maqolot fiho ala al-vajh» («Usulul-fiqhni o'rganish va u to'g'ridagi umumiy qarashlarning tafsiloti») deb nomlanadi. Bu kitob «Usulul-fiqh» sohasida yozilgan. Shu vaqtgacha Abu Hafs Nasafiyning usulda yozilgan bu asari noma'lum bo'lgan. Abulhasan Ubaydulloh ibn Husayn ibn Dallol Karxiyning (260–340/873–952 yy) «Risola» asariga Abu Hafs Nasafiy sharh yozadi. Ushbu asarni Nasafiyning usulda yozilgan yagona asari sifatida e'tirof etish mumkin. Balki, bu asar alohida kitob holatida emas, «Matla' an-nujum» tarkibida bo'lganligidan ommaga keng tanilmagandir. Asar to'plam tarkibining 26a-44a varaqlaridan joy olgan.

Risola hajmi 22 varaq, to'plam varaqlarining o'lchami 27,5x33sm., matn o'lchami 20,5x22,5sm. dir. Risola qo'lyozmasining mazkur nusxasi ko'chiruvchisi Muhammad ibn Homid ibn Ali Buxoriy (laqabi Sharaf Homidiy) bo'lib, nusxa 765 / 1363-yilda yakunlangan (Abu Hafs Nasafiy, 2015:19).

Bu risolaning o'ziga xos jihatlari ko'p bo'lib, u orqali Abu Hafs Nasafiy yashagan davr, ya'ni XI-XII asrlarda Movarounnahr diyoridagi ilmiy muhitni qay darajada ekanini bilish mumkin. Olim bu asarida «Usulul-fiqh» sohasida nafaqat Movarounnahr ulamolari balki boshqa yurt ulamolarining ham qarashlarini keltirib o'tadi. Jumladan, asarda Abu Hafs Nasafiy «diyorimizning keyingi davrlar olimlaridan Abu Zayd Dabusiyy» va «bag'dodlik mashoyixlarimizdan Karxiy» va «Jassosning nazdida» deya mashhur ulamolarning fikrlarini ham eslab o'tadi. Samarqand, Buxoro va Balx shaharlari olimlarining «Usulul-fiqh» ilmidagi ba'zi masalalar borasidagi qarashlarining qiyosiy tahlili yoritilishi ham asarning qiymatini oshiradi. Bundan ko'rinadiki, Abu Hafs Nasafiy bir davrning o'zida islom olamidagi mahalliy va boshqa yurt ulamolarning qarashlaridan boxabar bo'lgan.

Asarni o'rganish jarayonida Abu Mansur Moturidiy Abu Hafs Nasafiyning katta ustozlaridan ekaniga, asarda u kishidan iqtiboslar keltirganiga, Abu Mansur Moturidiy nafaqat aqida ilmining

majoziy ma'nodagi asoschisi, balki fiqhda ham yetuk olim bo'lganiga, u kishi bu sohada bizning davrimizgacha yetib kelmagan «Ma'xaz ash-sharoye» va «Kitob al-jadal» asarlarini yozganiga guvoh bo'lish mumkin.

Olim hanafiy fiqhini yoritish bilan birga hadis ahli, mu'taziliylar, murjiya va ismoiliya ka'bi boshqa mazhab va firqalarning ijmo' va qiyosning mohiyati borasidagi qarashlarini ham tushuntirib o'tganini ko'rish mumkin. E'tiborli tomoni shundaki, olim yuqoridagi firqalar haqida ma'lumot berar ekan ularning birortasiga raddiya bermaydi. Asarni qisqa qilib, unda «Usulul-fiqh» ilmidagi barcha qonun-qoidalarni kichik bir asarda muxtasar qilib keltiradi.

Asarning yozilish uslubi ham hanafiy mazhabi tartibida bo'lib, avval Qur'on, sunna, ijmo', qiyosdan iborat bo'lgan asosiy to'rt manbasini keltirib, keyin Qur'onga asoslanib dalil keltirishning ibora (bayon qilish), ishora, izmor (boshqa ma'noda ishlatish), dalolat (dalolat berish) va iqtizo' (hukmni aniqlashga yordam berish) degan usullarini ham borligini aytib o'tadi. Usuldagi barcha qonun-qoidalarni qisqa va lo'nda qilib, tushunarli tilda yoritib o'tgandan so'ng risolaning oxirida Abulhasan Karxiyning «Risola»sida kelgan usuldagi 39ta fiqhiy qoidalarni ham kiritadi. Oldin aytib o'tkanimizdek, Abu Hafs Nasafiy Abul Hasan Karxiyning «Risola»siga alohida sharh ham yozgan.

Bir so'z bilan aytganda bu risola shofeiylilik va hadis ahlining fiqhga oid qoidalari hamda mahalliy ulamolarning usul al-fiqhga oid qarashlarini o'rganishda ham katta ahamiyatga ega (Muhammadaminov S., 2007:85).

Bu asar «Matla' an-nujum va majma' al-'ulum» to'plamidan alohida kitob holatida Toshkent davlat sharqshunoslik instituti huzuridagi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharq qo'lyozmalari markazining 2013–2015 yillarga mo'ljallangan Yosh olimlar fundamental granti (№ YOF 1-FA-1-14287) doirasida ustozlar S. Muhammadaminov va H. Aminovlar tomonidan nashrdan chiqarilgan.

Abu Hafs Nasafiyning «Matla' an-nujum va majma' al-'ulum» to'plamidan keyingi o'rinni olgan fiqhiy asari bu «Mashore' ash-sharoye'» (Shariat [qonunlari] namunalarini) deb nomlanadi (Muhammadaminov. S., 2012:20). Bu asarni olim fiqhning «Furu al-fiqh» sohasida yozgan. Asar Movarounnahrda Qoraxoniylar hukmdorligi paytida yozilgan dastlabki furu kitoblardan sanaladi. Musulmon olamida mufasssir, faqih, muaddib sifatida mashhur bo'lgan Abu Hafs Nasafiyning ijodi bilan

shug'ullangan tadqiqotchilar uchun «Mashore' ash-sharoye'»ning faqat nomigina ma'lum bo'lib, asarning o'zi mavjudligi haqida ma'lumot bo'lmagan (Rahimjonov D, 2020:18). Lekin S.A. Muhammadaminov tomonidan Nasafiyning bu asari to'liq shakli «Matla' an-nujum va majma' al-'ulum» to'plamining ichida mavjud ekani aniqlangan. U 42a-162a sahifalarda joylashgan bo'lib, 118 varaq, 50 kitob va 100 fasldan ko'proqni tashkil etadi.

Shu bilan birga bu kitobning bir nusxasi Toshkentda bo'lishi bilan birga uning boshqa bir nusxasi Hisndiston respublikasining Rampur shahridagi «Raza» kutubxonasida saqlanadi. U nusxa ham «Matla' an-nujum va majma' al-'ulum» to'plamining tarkibida joylashgan. Har ikkala kitobning farqli jihatlari mavjud. Abu Hafs Nasafiy bu asarni yozib tugatgandan so'ng o'g'li Abullays Ahmadga (501-551 hij) imlo qildirgan va o'g'li u kitobni o'z qo'li bilan yozib olgan. Hozirgi nusxasi ham aynan shudir.

Bu kitobning yozilish uslubi ham o'ziga xos tartibda bo'lgan. Abu Hafs Nasafiygacha Furu al-fiqh sohasida yozilgan kitoblarda, jumladan «al-Hidoya»(Burxoniddin Marg'inoniy), «Badoe as-Sanoe»(Ahmad Kosoniy) ka'bi kitoblarda uchramaydigan bir holatni uchratish mumkin. Unda olim turli masalalarga yechim berishda faqat javobning o'zini keltirish bilan kifoyalanadi. (Abu Hafs Nasafiy, 2021:11). Bundan tashqari kitob mavzular ko'lami jihatidan yuqoridagi kitoblardan kattaroq hajmli bo'lib mavzularni tushuntirishda ixchamroq shakldadir. Albatta, Nasafiy bu asarini yozishda «Zohir ar-rivoya» boshqa mazhab ulamolarining ilmlaridan keng foydalanadi. Olim kitob yozish asnosida duch kelgan mazhab asoschilari va muftahidlar orasidagi turli ixtilofli masalalarga yechim sifatida «tarjih» uslubidan foydalanadi. Uning bu asari o'sha davrdagi madrasalarda darslik sifatida o'qitilgan. Bu asar olim yashagan zamondan keyingi davrlarda ijod qilgan ahli ilmlar uchun ham asosiy manba bo'lib xizmat qilganini ko'rish mumkin. Jumladan, Mahmud Ustrushoniy Hanafiy, Qozi Samoviy (Mahmud ibn Ismoil), Maqsudxo'ja ibn Mansurxo'ja ka'bi olimlarning asarlarida va Movarounnahrda ba'zi muftiy va qozilarning ishlab chiqqan jo'nglarida bu asardan keng foydalanilganini ko'rish mumkin. Abu Hafs Nasafiy bu asarida hozirda ham biz uchun muhim bo'lgan tarixiy va shar'iy ma'lumotlarni keltirib o'tgan. Jumladan, bu kitobda ibodat masalalari, hokimiyatning o'z fuqarolari, turli din vakillari, jumladan «ahli zimmalar»

hamda jamiyat va shaxs o'rtasidagi munosabatlarni belgilovchi, ijtimoiy hayotning barcha sohalarini tartibga soluvchi huquqiy me'yorlar tushuntirib o'tilgan.

Ushbu kitob bo'yicha xulosa shuki, XI-XII asrlarda Movarounnahr hududida ushbu kitob asosiy shar'iy qo'llanma sifatida ko'rilgan va jamiyat ilm ahlining dasturiy kitoblaridan biri hisoblanadi.

To'plamda «Furu al-fiqh» sohasida yozilgan yana bir kitob mavjud bo'lib olim uni ham yoritib, tushuntirib o'tgan. Bu kitobning nomi «Kitob al-muzokara val-imtixon fil-masoil al-hison» (Foydali masalalar uchun muzokara va imtixon kitobi) deb nomlanadi. Uni mashhur qozi al-quzzot Abu Abdulloh Domg'oniy (vaf. 1085) yozgan. Asarda «Furu al-fiqh»ning ibodat hamda muomalot mavzularidagi ilmlar savol-javob tarzida yozilgan.

Allomaning katta to'plamidan o'rin olgan keyingi asarlari fiqhning faroiz yo'nalishida yozilgan bo'lib ular «Nazm al-faroiz» (Faroiz nazmi), «Nazm al-masoyil al-mu'ayyat fil-faroiz» (Faroizdagi mushkul masalalar nazmi), «Maso'il min habsiha» (Habs masalalaridan) asarlaridir. Bu asarlari ham o'ziga xos tarzda yozilgan. Ularni ikkiga bo'lib o'rganish mumkin. Birinchi asari «Nazm al-faroiz» to'liq kitob holatida yozilgan bo'lsa, qolgan ikkitasi savol-javob shaklida yozilgan. Olimning «Nazm al-faroiz» asari aslida Abu Mansur Mahmud Muhallabiy ismli olim qalamiga mansub bo'lib Abu Hafs Nasafiy uni to'liqroq ko'rinishda qayta ishlangan. Asar muallifi X asrda Somoniylar davlati davrida ijod qilgan. Bu asar «Faroiz ilmi» (meros ilmi)da juda muhim manbalardan hisoblanadi. Jumladan, bu asarda merosxo'rlar va ularning meros olish darajalari, ulushlari hamda mayyitning meros olmaydigan qarindoshlar haqida to'liq ma'lumotlar keltirilgan. Jumladan, Burhonuddin Mahmud «Muhit»da Abu Hafs Umar Nasafiydan naql qilgan quyidagi fikrni keltiradi: «Men meros bo'yicha (hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi haqida) fatvo yozgan edim. Unda shartlarni juda qattiq qilib belgiladim. So'ng uni shayxulislom Ali ibn Ato ibn Hamza Sug'diyga ko'rsatganimda, u to'g'ri, deb bilmadi. U «oxiriga «» harfini qo'shib، تركه ميراثاً، ya'ni «uni meros sifatida qoldirdi» deb yozsang, to'g'ri deb hisoblayman», dedi» (Bekmirzayev I., 2017:176). Shundan ham ko'rinadiki, protsessual hujjatlarni rasmiylashtirish bo'yicha berilgan fatvolar hamisha keng ilmiy jamoatchilik e'tiborida bo'lgan. To'plamdagi ikkinchi asar «Nazm al-masoil al-mu'ayyat fil-faroiz» Abu Najo Muhammad ibn

Mutahhir ibn Ubayd Forizning qalamiga mansubdir. Uchinchi asar esa Ali ibn Muhammad Nasaviyga tegishli. Bu asarlar yuqorida aytib o'tilgani kabi savol-javob tarzida yozilgan. Bu kitoblarda meros ilmiga oid barcha qoidalarni mustahkamlab olishga xizmat qiladigan usullar va tartiblar yoritilgan. To'lamda yana bir «Furu al-fiqh» ilmida yozilgan kitob mavjud. U kitobning nomi «at-Taharir al-muxtora fil-xilofiyot ad-davvora» (Doimiy aylanib yuruvchi xilofli (rivoyatlar)ga tanlangan hujjatlar kitobi) deb nomlanadi. Olim bu asarida fiqhning «xilofiyot» yo'nalishida ijod qilganini ko'rish mumkin. Abu Hafs Nasafiy bu kitobida hanafiy mazhabida amaliy fiqhning ixtilofli masalalarini qiyoslash orqali ularga yechim topishga harakat qilgan. Ixtilofli masalalarga misol qilib voyaga yetmagan bolaning zakot berishi yoki bermasligi masalasini aytish mumkin. Ushbu masalaga olim quyidagicha javob beradi. Shariatda voyaga yetmagan bolaga namoz o'qish va ro'za tutish farz bo'lmagani kabi unga garchi zakot nisobidagi puli bo'lsa ham zakot berish farz bo'lmaydi deb javob bergan. U bolaning zakot bermasligiga qiyos namoz va ro'za bo'ladi deyiladi. Olim bu asarida shunga o'xshash «Furu»dagi ba'zi nozik masalalarga o'z qarashlarini keltiradi.

Nasafiyning to'plamda yuqoridagi kitobidan tashqari yana boshqa kitobi ham mavjud bo'lib u «Kitob addi al-masoil al-hison allatiy axaza fiho ashobuno bil-qiyos duna-l-istehson» (Istehsondan qiyos (hukmi)ga ko'ra as'hoblarimiz olgan bir necha yaxshi masalalar kitobi)), deb nomlanadi. Bu asar kichik bir risola ko'rinishida bo'lib unda Nasafiy hanafiy ulamolar 22ta masalalarda istehsondan ko'ra qiyosga qarab chiqarilgan hukmlarni qabul qilganlari alohida ta'kidlangan. Bu hol ham yuqoridagi voyaga yetmagan bola to'g'risidagi qarashining isboti o'laroq keltirilgan bo'lishi mumkin. Alloma bu asarida hanafiy fiqidagi ulamolar qabul qilib kelayotgan hukmlarning uslubiy jihatlarini (qiyos, istehson) keng ochib berishga harakat qiladi. Shu bilan birga Nasafiyning o'zi ham hukm olishda istehson emas avval qiyosni ustun qo'rganini shu asaridan bilib olsa bo'ladi. Ushbu holatdan ham Nasafiyning fiqh ilmida daqiq bo'lgani ma'lum bo'ladi.

NATIJA

Majmuada qozilik hujjatlariga aloqador asarlar mavjud. Islom dini va huquqi Movarounnahrda kirib kelishi bilan, hatto undan ham oldin mintaqada majburiyat va shartnomalar to'g'risida fikrlar

bo'lgan va amaliyotda qo'llanilib kelingan. Islom huquqi asosida Movarounnahr faqihlari fuqarolik huquqi tushunchalarini kengaytirib, qayta ishladilar. Bu jarayonlarda Burhoniddin Marg'inoniy, Abullays Samarqandiy, Abu Hafs Umar Nasafiy kabi olimlar tomonidan yozilgan asarlarda shartnomalar, ularning alohida turlari ko'rsatilgan bo'lsa ham, majburiyat huquqining nazariy qoidalari to'la yoritilmagan va oxirigacha bir tizimga solinmagan edi. (Raxmanov. A, 2008:5). Ammo, bu holat Movarounnahr diyorida ilk islom tarixi davrida edi. Yuqoridagi olimlardan keyin qozilik va sud tizimlari mukammal darajada tizimga solingan. Albatta, keyingi davr olimlari uchun yuqoridagi allomalar asarlari yagona dastur bo'lib xizmat qilgan.

Najmuddin Nasafiyning islom huquqshunosligining qozilik va sud tarmog'ida ham keng ijod qilgani uning yozib qoldirgan asarlaridan ma'lum. Jumladan, olim qozilik va sud tizimining «mahzar» va «sijil» ka'bi ikki tarmoqlarida asar yozgan. «Mahzar» sohasida «Muxtasar as-sukuk alan-nahj al-masluk fiy shiro» (Sotib olish yo'lida muxtasar hujjatlar) kitobini hamda «sijil» ilmida esa «Multaqitot min ar-rusum lil-quzzot val-xusum» (Qozilar va xusumatchilar uchun (hujjatlashtirish) rusumlaridan topilmalar) asarini yozgan. Olim bu asarlarda qozilik hujjatlari namunalarini chuqur ochib bergan va Qozi bo'lib turgan va qozilikni niyat qilgan ahli ilmlar uchun keng yo'riq va ko'rsatmalar bayon qilingan. Abu Hafs Nasafiy qozilarga ish yuritish uchun turli shartlarni belgilab bergan. Jumladan, qozining yozma qarori haqiqiy ijro kuchiga ega bo'lishi uchun quyidagi talablarga javob berishi shart bo'lgan: – hujjatga qozining lavozimini tasdiqlovchi sulton tomonidan berilgan qozining ismi, qozilik hukmi o'tadigan hudud nomi tushirilgan muhr nishonasi bo'lishi kerak; – yozma qaror yoki hukm hoshiyasida yuridik jihatdan asoslanadigan dalil-hujjat, olingan manba va shaxs nomi ko'rsatib qo'yilishi kerak; – yozma qarorda ko'rilgan ishning yoki boshqa hudud qozisiga yo'llanayotgan murojaatnomaning qisqacha mazmuni va sabablari ko'rsatib o'tilishi kerak; – yozma qaror qo'zg'atilgan mahkama ishi bo'lib, unda albatta, guvohlarning ismi sharifi va da'vogarlarining da'vosi qozi tomonidan asoslab yozib qo'yilishi shart; – yozma qarorda hujjat yoki da'vo ishi ko'rilgan joy, sana, oy, kun va qozi mahkamasi kotibining ismi-sharifi ko'rsatilishi shart bo'lgan (Bekmirzayev I., 2017:95). Bundan ko'rinadiki, yuqoridagi shartlardan birortasi tushib qolgan taqdirda, hukm yoki yozma qaror to'liq

yuridik kuchga ega bo'lmagan deb hisoblanadi. Hamda, yuqoridagi talablar boshqa hudud qozisi tomonidan birdaniga ijro qilinmagan.

Bundan tashqari unda ikki shaxs o'rtasida tuziladigan savdo-sotiq, nikoh va shunga o'xshash shartnoma hujjatlari bilan amalga oshiriladigan insonlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar ham o'z aksini topgan.

«Mahzar» sohasida ham olim hajjat ishlarini tartibga soluvchi tizim yaratgan. Jumladan, Umar Nasafiy da'vo hujjatlari turkumiga kiruvchi mahzarda barcha jarayonni ko'rsatish va guvohlik lafzlari katta ahamiyatga ega ekanini ta'kidlab, mahzar hujjatlarni quyidagi jumlar bilan boshlashni taklif etadi: Falonchi xoqon (Alloh uning podshohligini mustahkam qilsin va g'alabasini aziz qilsin) nomidan Buxoroda qozilik ishi va hukmlarni boshqaruvchi va Buxoro va uning atrofida yashovchi aholi orasida qozilik va imzo ishlarini bajaruvchi falonchi (ismi, laqabi va nasabi) qozi (Alloh uning tavfiqini bardavom qilsin) aytadiki... (Bekmirzayev I., 2017:196).

Shuningdek, olimning yuqoridagi fiqhning bu tarmog'ida yozilgan ikki asaridan tashqari yana bir asari bo'lgan. Bu asar «Faroiq al-vasoiq» deb nomlangan. Nasafiy bu asariga «Matla an-nujum» to'plamining fiqh bo'limida ishora qilib ketgan. Jumladan unda: (Biz (batafsil) «Faroiq al-vasoiq» (Turli hujjat vasiqalari) nomli kitobimizda zikr qilganmiz) kabi ishora berganini kuzatish mumkin. Aytish mumkinki, hozirgi kunda yuqoridagi Nasafiyning qozilik hujjati namunalari Movarounnahr tarixiga oid eng qadimiy hujjatlar to'plamlaridan hisoblanib ulardan keng iste'foda etilmoqda.

Endi Nasafiyning «Matla' an-nujum» to'plami tarkibiga kirmagan, alohida yozgan fiqhiy asarlari bilan tanishamiz. Bunday asarlaridan biri, katta hajmli «al-Hasoil fil-Masoil» kitobidir. Bu kitobning saqlanib qolganligi haqida hech qanday ma'lumotlar bo'lmasada bu asar Nasafiyning boshqa asarlariga asos bo'lganligi haqida ma'lumotlarga duch kelish mumkin. Jumladan, olim o'zining «Matla' an-nujum» to'plamida ayrim masalalarda «al-Hasoil fil-Masoil» asariga ishora qilgan joylar bor. Masalan olim «Furu al-fiqh» yo'nalishida yozgan «Mashori' ash-sharoyi» kitobining ba'zi mavzularini tushuntirishda «al-Hasoil fil-Masoil»dan keng foydalanadi. Undan tashqari tafsir soyasida yozgan «at-Taysir fit-tafsir»da va fiqhiy lug'atlar jamlanmasi sifatida yozgan «Tilba at-talaba» asarida ham ushbu asariga ishoralar

uchraydi. Olimning o'zidan tashqari boshqa olimlar ham bu asardan foydalangan. Jumladan, Mas'ud ibn Mahmud ibn Yusuf Samarqandiy (XIV asr) degan olimni keltirish mumkin. U mo'g'ullar davrida yashab qozi lavozimida bo'lgan. Qozi o'zining mashhur «Salot al-Mas'udiy» asarida «al-Hasoil fil-masoil» dan iqtiboslar keltirgan (Mas'ud ibn Mahmud ibn Yusuf Samarqandiy, 1904:45).

Yuqoridagi ma'lumotlardan xulosa qilish mumkinki, undan olimning o'zi va boshqa olimlar ko'p foydalanganliklaridan bu kitob Nasafiyning fiqhiy asarlari ichida eng yiriklaridan biri bo'lganligiga shubha yo'q.

To'plamga kirmagan fiqhiy kitoblardan yana biri Abulhasan Ubaydulloh ibn Husayn ibn Dallol Karxiyning (260-340/873-952) ning hanafiy mazhabi bo'yicha 39 ta fiqhiy qoidani o'z ichiga olgan «Risola» nomli asariga yozgan sharhidir. Bu asar «Sharh risola al-Karxi» («Karxiy risolasining sharhi») deb nomlanadi (Abu Zayd Dabusi, Nashr yili yo'q:80-84). Nasafiy ushbu «Risola» da keltirilgan 39 ta fiqhiy qoidani misollar orqali tushintirib, izohlab beradi. Ba'zi manbalarda Nasafiyning bu asarini «Usulul-fiqh» dagi yagona asari deyilishi mumkin. Ammo yuqorida to'plam tarkibidagi boshqa bir katta asari borligi keltirib o'tildi. Abu Hafs Nasafiy Karxiyning bu asarini keng ma'noda sharhlaydi. Mukammal tartibga yetgandan so'ng uni madrasa ta'limida asosiy kitob sifatida joriy qiladi.

Najmuddin Umar Nasafiyning to'plam tarkibidan joy olmagan yana bir kitobi «al-Manzuma al-nasafiya fil-xilofiyot» (Kelishmovchiliklar haqida Nasafiyning manzumasi), deb nomlanadi. Bu asar arab tilidagi nazm uslubining rajaz vaznida, mohirona tartibda yozilgan. Uning nasriy shakli ham mavjud bo'lib u «Hasr al-masoil va qasr ad-daloil» (Masalalar qo'rg'oni va dalillar qasri), deb nomlanadi. XIV asrda yashab ijod etgan mashhur arab tarixchisi, sayyoh Ibn Battuta (tax.vaf. 770/1369) o'zining «Rihla» (Sayohat) nomli asarida Nasafiyning aynan ushbu asarini zikr qilib o'tkandir (Путешествия Ибн Баттуты, 1996:279).

Bu kitobning asli va nazm ko'rinishidagi har ikkala kitob ham o'z ichiga 10ta bobni olgan. Bu kitobning ikkinchi nomi «Xilofiyyot», deb nomlanadi. Bunga sabab, Nasafiy bu kitobda Imom Abu Hanifa va u kishining izdoshlari Imom Abu Yusuf va Muhammad ibn Hasan Shayboniy hamda Imom Shofei, Molik ibn Anas kabi ulamolar o'rtasida ixtilofli bo'lgan fiqhiy masalalarni keng

yoritadi. Bu kitob shu jihatidan «Matla' an-nujum» to'plami tarkibidagi «At-tahorir al-muxtora fil-xilofiyot ad-davvora» ga o'xshaydi. Sababi bu ikki kitob ham asosan ixtilofli bo'lgan masalalarga bag'ishlangan.

Nasafiyning ushbu asari musulmon olamiga keng tarqalgan. Movarounnahrda mo'g'ullar hukmronligi paytida qayta-qayta ko'chirilgan. Unga ko'plab sharhlar bitilgan.

XULOSA

Xulosa o'rinda aytish mumkinki, Abu Hafs Umar Najmuddin an-Nasafiyning yuqorida keltirilgan, faqatgina fiqh ilmida yozilgan asarlarining adadidan ma'lumki, uning asarlari Movarounnahr hanafiylik fiqh maktabida o'ziga xos mavqega ega bo'lgan. U yozgan asarlar o'lkada davlatchilik an'analari rivojiga katta hissa qo'shgan. Buning isboti sifatida Abu Hafs Nasafiyning katta qozilardan bo'lganligi ham yetarlidir.

Shuni ham aytish kerakki, O'rta asrlarda Movarounnahr o'lkasidan yetishib chiqqan mashhur olimlarning shu darajaga yetishlarida olimning katta hajmdagi asarlarining o'rni beqiyosdir. Nasafiyning yuzlab shogirtlari bo'lganligi ham fikrimizni isbotlaydi. Olim faqat talabalarga dars berish va kitoblar ta'lif qilishdan tashqari mamlakatda qozilik lavozimida ishlaganligi uning asarlarining yozilish uslubiga ham ta'sir o'tkazgan bo'lib, fiqhiy asarlarida asosiy mazmun sud tizimi, qozilik faoliyati nuqtai nazaridan aytilgan fikrlar, hukmlardan iborat.

Olim qoldirgan ilmiy merosning ulkanligi haqidagi fikrlarga qo'shimcha qilib shuni ta'kidlash lozimki, alloma fiqhning furu al-fiqh, usulul-fiqh yo'nalishlarida bir nechta asarlar yozib qoldirganligi olimning yetuk saviyali faqihlardan bo'lganligining yana bir misolidir. Bundan tashqari, faroiz masalalariga oid fatvolari musulmon jamiyatlar uchun katta manfaat beruvchi ma'lumotlar bo'lib, olim bu masalalarni o'z ichiga oluvchi bir qancha to'plam asarlar tashkil qilgan.

Alloma Najmiddin Umar Nasafiyning fiqh ilmiga oid yozib qoldirgan ilmiy merosi haqida qancha gapirsak ham oz ko'rinadi. Chunki olim asarlari bilan musulmon jamiyatlardagi tolibi ilmlarga katta manfaat yetishi, ilmdan nasibalari keng bo'lishligi uchun asrlarga tatigulik manbalar oldirgan va o'z nomini abadiylikka muhrlagan ulamolardandir. Uning asarlaridagi fatvolarning aniq va tushunilishi oson tarzda bayon qilinganligi

turli xil masalalar uchun buguni kunda ham to'g'ri yechimlar chiqarish va ko'plab masalalarning eg daqiq joylarigacha o'rganish imkonini beradi. So'nggi yillarda yurtboshimiz tashabbuslari bilan allomalar merosini o'rganishda keng imkoniyatlar yaratilganligi ham Abu Hafs Nasafiy kabi yetuk olimlar ilmiy merosining qayta tiriltirilishi va o'rganilishida keng yo'l ochdi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Раҳимжонов Д. (2020). Абу Ҳафс Насафий ва унинг «Китоб ал-қанд» асари / Монография. Тошкент: Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи.
2. Абдулҳаким Шарий Жўзжоний. (2005). Ислом ҳуқуқшунослиги ва ҳанафий мазҳаби таракқиётида Ўрта Осиё фақиҳларининг ўрни. Автореф. Toshkent: Toshkent islom universiteti.
3. Муҳаммад ибн Аҳмад аз-Заҳабий. (1992). Сийар а'лом ан-нубало'. Байрут: Му'ассасат ар-рисола, 8-нашр.
4. Нажмуддин Абу Ҳафс Умар ибн Муҳаммад ибн Аҳмад ан-Насафий. (2015). Таҳсил усул ал-фиқх (тадқиқот ва таржима) / Нашрга тайёрловчилар: Ҳ. Аминов, С. Муҳаммадаминов. Тошкент: «Ношир».
5. Аллоқулов А.А. (2018). Абу Ҳафс Насафийнинг «Ақоид» асари ва унинг шарҳлари таҳлили. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) ... дис. автореф. Т.: Ўзбекистон халқаро ислом академияси.
6. Муҳаммадаминов С.А. (2012). Абу Ҳафс ан-Насафийнинг «Матла ан-нужум ва мажма ал-улум» асари ва унинг Марказий Осиё ислом илмлари ривожига тутган ўрни (XI аср охири - XII аср ўрталари): тарих ф.н. ... дисс. Avtoreferat – Тошкент: ЎЗР ФАШИ.
7. Булгаков П.Г. (1991). Неизвестный энциклопедический труд XII века // Общественные науки в Узбекистане.
8. Нажмуддин Абу Ҳафс Умар ибн Муҳаммад ибн Аҳмад ан-Насафий. (2015). Таҳсил усул ал-фиқх (тадқиқот ва таржима) / Нашрга тайёрловчилар: Ҳ. Аминов, С. Муҳаммадаминов. Тошкент: Ношир.
9. Муҳаммадаминов С. (2007). Абу Ҳафс ан-Насафийнинг усул ал-фиқхга оид бир рисоласи // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. № 1. Тошкент.
10. Abu Hafs Umar ibn Muhammad al-Nasafi. (2021). Mashori' al-shara'i asarining ilmiy-tanqidiy nashri. Ilmiy-tanqidiy nashr tuzuvchisi: S.A. Muhammadaminov. Toshkent. O'zR FA «Fan»nashriyoti.
11. Бекмирзаев И.И. (2017). Мовароуннахр қозилик тизими ривожига Бурҳониддин Маҳмуд ал-Бухорийнинг ўрни ва «ал-Муҳит ал-Бурҳоний» асарининг аҳамияти (XI-XIII асрлар). Тарих фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган (DSc) ... дисс. Автореф. Тошкент: Тошкент ислом университети.
12. Раҳманов А.Р. (2008). Ислом ҳуқуқида шартнома ва мажбуриятлар ҳамда миллий қонунчилик. Тарих фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган (DSc) ... дисс. Автореф. Тошкент: Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги Академияси.
13. Масъуд ибн Маҳмуд ибн Юсуф Самарқандий. (1904). Солат ал-Масъудий. Самарқанд: Г.И.Демурова номидаги тошбосма. Бу асарнинг қўлёзма нусхалари ҳақида маълумотлар СБР XI. №№ 7434-7444.
14. Абу Зайд ад-Дабусий. (нашр йили кўрсатилмаган) Таъсис ан-назар. Миср: Коҳира
15. Путешествия Ибн Баттуты. (1996). Перевод с арабского, введение, историко-лингвистический комментарий. проф. Н. Ибрагимова, д.ф.н., проф. Т. Мухтарова. Ташкент. Главная редакция энциклопедий.

REFERENCES

1. Rahimjonov D. (2020). Abu Hafs Nasafi and his work «Kitab al-qand» / Monography. - Tashkent: Innovative development publishing house.
2. Abdulhakim Shariy Jozjani. (2005). The role of Central Asian jurists in the development of Islamic jurisprudence and the Hanafi sect. Dissertation abstract. Tashkent: Tashkent Islamic University.
3. Muhammad ibn Ahmad al-Zahabi (1992). Siyar a'lam an-nubala'. Beirut: Mu'assat al-risala, 8th edition.
4. Najmuddin Abu Hafs Umar ibn Muhammad ibn Ahmad al-Nasafi. (2015). Tahsil usul al-fiqh (research and translation) / Preparation for publication: H. Aminov, S. Muhammadaminov. - Tashkent: Noshir.
5. Alloqulov A.A. (2018). Analysis of Abu Hafs Nasafi's work «Aqeedah» and its commentaries. Doctor of Philosophy in History (PhD) dissertation abstract. Tashkent: International Islamic Academy of Uzbekistan.
6. Muhammadaminov S.A. (2012). Abu Hafs al-Nasafi's work «Matla an-nujum wa majma al-ulum» and its place in the development of Islamic sciences of Central Asia (end of XI century - middle of XII century): dissertation. Tashkent: Oriental Studies Institute.
7. Bulgakov P.G. (1991). Neizvestnyy entsiklopedicheskiy trud XII veka // Obshchestvennye nauki v Uzbekistane.
8. Najmuddin Abu Hafs Umar ibn Muhammad ibn Ahmad al-Nasafi (2015). Tahsil usul al-fiqh (research and translation) / ed. H. Aminov, S. Muhammadaminov. Tashkent: Publisher.
9. Muhammadaminov S. (2007). Abu Hafs al-Nasafi's treatise on usul al-fiqh // Social sciences in Uzbekistan. No. 1. Tashkent.
10. Abu Hafs Omar ibn Muhammad al-Nasafi. (2021). Scientific and critical edition of Mashari' al-shara'i. Compiler of scientific and critical publication: S.A. Muhammadaminov. Tashkent. "Fan" publishing house of the Republic of Uzbekistan.

11. Bekmirzaev I.I. (2017). The role of Burhoniddin Mahmud al-Bukhari in the development of the Mawarannahr judicial system and the importance of the work "al-Muhit al-Burhani" (XI-XIII centuries). Written for the degree of Doctor of History (DSc) ... dissertation abstract. Tashkent: Tashkent Islamic University.
12. Rakhmanov A.R. (2008). Contracts and Obligations in Islamic Law and National Legislation. Written for the degree of Doctor of History (DSc) ... dissertation abstract. Tashkent: Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan.
13. Mas'ud ibn Mahmud ibn Yusuf al-Samarkandi. (1904). Salat al-Masudi. Samarkand: lithograph named after G.I. Demurova. Information about manuscript copies of this work is SVR XI. No. 7434-7444.
14. Abu Zayd al-Dabusi. (The year of publication is not indicated). Ta'sis al-nazar. Egypt: Cairo.
15. Puteshestvia Ibn Battuty. (1996). Translation from Arabic, introduction, historical-linguistic commentary. prof. N. Ibragimova, Ph.D., prof. T. Mukhtarova. Tashkent. Glavnaya editorial encyclopedia.

